

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FIZIKA-TEXNIKA INSTITUTI**

**XOLOV UYG‘UN RAUFOVICH**

**AVTONOM FOTOELEKTRIK QURILMALARNING ENERGIYA  
TA‘MINOTI ISHONCHLILIGINI OSHIRISH VA ENERGIYA  
YO‘QOTISHLARNI TAJRIBADA ANIQLASH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**QARSHI – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**  
**Contents of the Dissertation Abstract of Philosophy of Doctor (PhD) on  
technical sciences**

**Xolov Uyg'un Raufovich**

Avtonom fotoelektrik qurilmalarning energiya ta'minoti ishonchligini  
oshirish va energiya yo'qotishlarni tajribada aniqlash..... 3

**Холов Уйгун Рауфович**

Экспериментальное определение потерь энергии и повышение  
надежности автономных фотоэлектрических установок ..... 21

**Kholov Uygun Raufovich**

Increasing the reliability of the energy supply of autonomous photoelectric  
devices and experimental determination of energy losses..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FIZIKA-TEXNIKA INSTITUTI**

**XOLOV UYG‘UN RAUFOVICH**

**AVTONOM FOTOELEKTRIK QURILMALARNING ENERGIYA  
TA‘MINOTI ISHONCHLILIGINI OSHIRISH VA ENERGIYA  
YO‘QOTISHLARNI TAJRIBADA ANIQLASH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**QARSHI – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2020.2.PHD/T1640 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Fizika-texnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tursunov Muxamad Nishanovich**  
texnika fanlari doktori

**Rasmiy opponentlar:**

**Mirzayev Shavkat Mustakimovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Payzullaxanov Muxammed-Sultanxon**  
**Saydivalixonovich**  
texnika fanlari doktori, k.i.x.

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 25 04 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 180100, Qarshi sh. Mustaqillik ko'ch. 225-uy Tel. (99875) 224-02-89, faks: (99875) 224-13-95, e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 07 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180100, g. Qarshi sh. Mustaqillik ko'ch. 225-uy Tel: (99875) 224-02-89, faks: (99875) 224-13-95, e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «25» 03 kuni tarqatildi.  
(2024 yil «25» 03 dagi № 18 raqamli reestr bayonnomasi).

  
**G.N. Uzoqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
t.f.d., professor

**X.A. Davlonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi,  
t.f.d., professor

**B. Urishev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,  
professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda qayta tiklar " an energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, an'ar yoqilg'i-energiya zahiralari tejash, atrof-muhitga chiqadigan antropogen chiqindilarni kamaytirish muammolarini bartaraf etishda quyosh fotoelektrik batareyalarini joriy etish va samaradorligini oshirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda tabiiy sharoitlarda fotoelektrik batareyalarning frontal yuzasiga tushadigan quyosh nurlanish oqimi zichligining 20 foizi elektr energiyasiga, qolgan qismi esa issiqlikka aylanadi<sup>1</sup>. Natijada, fotoelektrik batareyalarning ishlash samaradorligi pasayib ketadi. Bundan tashqari, tashqi havo harorati, changlanish, quyosh nurlanish oqimi zichligining o'zgarishi va gorizontga nisbatan o'rnatish burchaklari ham ta'sir qilib, fotoelektrik batareyalarning degradatsion jarayonlarini tezlashtiradi. Shuning uchun, amaliyotda fotoelektrik batareyalarni tashqi ta'sirlardan himoyalash asosida texnik-iqtisodiy, energetik va ekologik samaradorligini oshirish maqsadida takomillashgan fotoissiqlik qurilmalarini ishlab chiqish va avtonom energiya ta'minoti tizimlarida foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda kristall kremniyli quyosh elementlaridan tashkil topgan fotoelektrik batareyalarning ishlashiga tashqi degradatsion ta'sir (havo harorati, changlanish va quyosh nurlanish oqimi)<sup>2</sup> larni kamaytirish va samaradorligini oshirish maqsadida faol va passiv metodlar yordamida turli xil materiallardan ishlab chiqilgan issiqlik kollektorlari bilan mujassamlashgan va takomillashtirilgan fotoissiqlik batareyalarni ishlab chiqish, kunduzgi vaqtda quyosh nurlanish oqim zichligini oshiruvchi, tunda esa changlanishdan himoyalash maqsadida reflektorlardan foydalanish yo'nalishida tadqiqotlar olib borilmoqda. Fotoelektrik batareyalarning frontal yuzasiga tushadigan quyosh nurlanish oqim zichligini oshirish va tunda changlanishdan saqlovchi reflektorlar o'rnatish asosida ilmiy tadqiqotlar ham o'tkazilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, fotoelektrik batareyalar asosidagi fotoissiqlik qurilmalarning energiya samaradorligini oshirish, elektrofizik, issiqlik-texnikaviy parametrlarini o'rganish va nazariy tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslash uchun modellashtirish asosida arzon, yengil, takomillashtirilgan va qulay ikki o'q bo'yicha harakatlanuvchi tayanch konstruksiyaga ega bo'lgan qurilmalarni ishlab chiqish va joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda an'anaviy yoqilg'i zaxiralari tejash, ulardan foydalanishda havoning ifloslanish darajasini kamaytirish, global isishning oldini olish maqsadida hududning geografik joylashuvidan kelib chiqib qayta tiklanadigan energiya manbalaridan va energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish orqali iste'molchilarning energiyaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, jumladan, markazlashgan energiya ta'minotidan uzoqda joylashgan hududlar uchun avtonom va barqaror energiya ta'minotini yo'lga qo'yish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi

---

<sup>1</sup>Weisz P.B. Basic Choices and Constraints on Long-Term Energy Supplies // Physics Today, 2004, pp. 141-144.

<sup>2</sup>Турсунов М.Н., Холов У.Р., Ахтамов Т., Эшматов М., Аликулов Р., Исмаилов Н. Влияние окружающей среды и структуры поверхности защитных стекол на параметры фотоэлектрических батарей // Сборник материалов международной научной конференции "Тенденции развития физики конденсированных сред", Фергана, 25.05, 2021 г. с.150-156.

PQ-4779-son “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>1</sup> gi Qarorida muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda fotoelektrik batareyalar asosidagi takomillashgan fotoissiqlik qurilmalarini ishlab chiqish va ulardan avtonom energiya ta‘minoti tizimlarida foydalanish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining IV. “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa ilg‘or texnologiyalar asosida texnika va qurilmalarni yaratish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Fotoelektrik batareyalar asosidagi fotoissiqlik batareyalarni ishlab chiqish va samaradorligini oshirish borasida jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Chet el olimlaridan K.A. Moharram (Misr), N.A. Rahim (Saudiya Arabistoni), V. N. Palaskar (Hindiston), Muhammad Adil Khan (Koreya), Tresna Dewi (Indoneziya), D.S. Strebkov (Rossiya), Xuejian Ma (Xitoy), Muhammad A. BASHIR (Pokiston), Amit H. Munshi (AQSh), Ammar A. Farhan (Iroq), David Parlevliet (Avstraliya), Furqan Tahira (Qatar), Nasrin Abdollahi (Eron) va boshqalar tomonidan fotoelektrik batareyalarni ishlash samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlar olib borilgan.

Mamlakatimizda fotoelektrik batareyalarni samaradorligini oshirish va quyosh elementlarining elektrofizik va issiqlik xarakteristikalarini o‘rganish bo‘yicha T.T. Riskiyev, R.A. Zaxidov, R.A. Muminov, M.N. Tursunov, R.R. Avezov, V.G. Dyskin, X. Sabirov, B.E. Xayriddinov, I.A. Yuldoshev, A.G’. Komilov, J.S. Axatov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Fotoelektrik batareyalar asosidagi fotoissiqlik batareyalarni ishlash samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va ishlatiladigan materiallarni tejash asosida xarajatlarni kamaytirish, tungi changlanish va quyosh nurlanish oqim zichligini oshiruvchi reflektorlarni o‘rnatish, barcha qurilmalar mujassamlashgan holda modellashtirish bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

---

<sup>3</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779-son “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Fizika-texnika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PFI FA-F3-004 "Fundamental yangi fizik modellar, mexanizmlar, yuqori samarali, arzon fotoo'zgartirgichlarni shakllantirish usullari, shuningdek ular asosidagi chidamli fotoenergetik qurilmalarni o'rganish" (2017-2020) loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** avtonom iste'molchilarni ishonchli elektr energiya va issiq suv bilan ta'minlashda fotoelektrik batareya asosidagi fotoissiqlik batareyasini takomillashtirish, energetik va texnik-iqtisodiy samaradorligini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

avtonom iste'molchilarni fotoelektrik qurilmalardan foydalanishning hozirgi holati, istiqbollari va muammolarini tahlil qilish;

avtonom fotoelektrik qurilmalarni ekspluatatsiya davomida yuzaga keladigan energiya yo'qotishlarni tajribada aniqlash;

avtonom fotoelektrik qurilmalarni energiya samaradorligini oshirishda fotoelektrik batareya asosidagi takomillashtirilgan fotoissiqlik batareyasini ishlab chiqish;

PV SYST.7.2 dasturi yordamida avtonom fotoelektrik qurilmaning energetik ko'rsatkichlarini tashqi omillarning ta'sirini hisobga olib prognozlash va modellashtirish;

takomillashtirilgan fotoissiqlik batareyasining issiqlik-texnikaviy va gidrodinamik jarayonlarini COMSOL Multiphysics 5.6 dasturi yordamida modellashtirish;

avtonom fotoelektrik va fotoissiqlik qurilmalarning ishlash samaradorligining texnik-iqtisodiy, ekologik ko'rsatkichlarni baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida monokristall kremniyli fotoelektrik batareya asosidagi yangi, yuqori samarali fotoissiqlik batareya tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** meteorologik omillarni (quyosh nurlanish oqimi zichligi, atrof-muhit harorati, atmosfera changlanishi, shamol tezligi va boshqalar) hisobga olgan holda fotoelektrik batareya asosidagi fotoissiqlik batareyalarning optik, elektrofizik xususiyatlari, issiqlik-texnikaviy, gidrodinamik jarayonlarni tadqiq qilish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, volt-amper, volt-vatt xarakteristikalarini, fotoissiqlik qurilmasining elektrofizik, issiqlik parametrlarini tajribaviy tadqiqot qilish, tajriba natijalarini umumlashtirish hamda zamonaviy hisoblash nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk marotaba markazlashgan energiya ta'minotidan olisda joylashgan qishloq ob'ektlari va fermer xo'jaliklarini yil davomida uzluksiz va sifatli elektr energiya hamda issiq suv bilan ta'minlash imkonini beradigan avtonom va ko'chma polikarbonat kollektorli va to'la issiqlik kontaktli fotoissiqlik qurilmasi ishlab chiqilgan (SAP 02301);

ilk marotaba avtonom fotoissiqlik stansiyalar uchun frontal yuzasini tungi changlanishdan himoyalovchi va quyosh nurlanish oqim zichligining ortishini

ta'minlovchi reflektorli, orqa yuzasi suv bilan sovutiluvchi kristall kremniy asosidagi fotoelektrik batareyalardan iborat takomillashtirilgan ta'minot tizimi ishlab chiqilgan;

oqimning issiqlik uzatish va gidrodinamik tenglamalari asosida suvning sarfi, tashqi havo harorati, quyosh nurlanish oqim zichligi va Reynolds sonining 2300 dan kichik qiymatlarida fotoissiqlik batareyasi frontal yuzasi haroratining o'zgarishini hisoblash imkonini beradigan matematik model ishlab chiqilgan;

fotoissiqlik va fotoelektrik batareyalaridan avtonom foydalanishda tashqi havo haroratining o'zgarishiga bog'liq qisqa tutashuv toki va salt yurish kuchlanishini hamda avtonom fotoissiqlik qurilmalarida energiya yo'qotilishlarni hisobga olgan holda energiya samaradorligini aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kristall kremniyli fotoelektrik batareya asosidagi takomillashtirilgan va quruq iqlimga moslashtirilgan bir vaqtning o'zida elektr energiyasi va issiq suv olish imkonini beradigan fotoissiqlik batareyasining tajribaviy namunasi ishlab chiqilgan;

parallel kanalli polikarbonat kollektorli to'la issiqlik kontaktli fotoissiqlik batareyasi asosida avtonom va ko'chma fotoissiqlik qurilmasi ishlab chiqilgan

fotoissiqlik batareyalarning issiqlik-texnikaviy va gidrodinamik jarayonlari tajribaviy va nazariy ma'lumotlarni taqqoslash uchun kompyuter dasturi yordamida modellashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, qurilmaning issiqlik-texnikaviy va elektrofizik parametrlarini o'rganish bo'yicha tabiiy sharoitlarda olib borilgan tajribalar natijalarining nazariy natijalarga mosligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fotoelektrik batareyalarning ishlashiga tashqi havo haroratining va quyosh nurlanish oqim zichligining ta'sirini kamaytirish va samarali ishlash imkonini beradigan matematik model va ularni hisoblash algoritmi ishlab chiqilganligi hamda changlanish darajasini fotoissiqlik batareyalarning samaradorligiga ta'sirini o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fotoelektrik batareyalarning ishlash samaradorligini oshirish uchun takomillashtirilgan arzon, sifatli fotoissiqlik batareyalar ishlab chiqilganligi va analoglariga nisbatan texnik-iqtisodiy va ekologik samarali ekanligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Fotoissiqlik qurilmalardan avtonom foydalanish, ishlash samaradorligini oshirish va takomillashgan tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va joriy qilishda olingan ilmiy natijalar asosida:

kichik quvvatli ko'chma fotoissiqlik qurilmasi uchun O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligidan sanoat namunasiga patent olingan (№ SAP 02301; 2022-yil). Natijada, markazlashgan energiya ta'minotidan uzoqda joylashgan avtonom iste'molchilar elektr energiya va issiq suv ishlab chiquvchi qurilma bilan ta'minlangan. Mazkur qurilmani amaliyotga qo'llash natijasida yillik o'rtacha 43 % quvvat samaradorligiga erishilgan;

avtonom fotoelektrik stansiyalarda takomillashtirilgan fotoissiqlik batareyasi "SOLAR NATURE" MChJ da joriy etilgan ("Uzeltexsanoat" uyushmasining 05.06.2023-yildagi 04-3/699 sonli ma'lumotnomasi). Olib borilgan tadqiqotlar

natijasida fotoissiqlik batareyalarning energiya samaradorligini an'anaviy fotoelektrik batareyalarga nisbatan 50% gacha qayta tiklashga va atrof-muhitga chiqariladigan zaharli chiqindilar miqdorini esa 90% gacha kamaytirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 25 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, Scopus bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligidan 1 ta sanoat namunasiga patent va 2 ta EHM dasturiy mahsuloti uchun mualliflik guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat bo'lib, 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot mavzusiga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi qo'yilgan maqsad va vazifalarning amaliy natijasi asosida e'lon qilingan ishlar bilan tasdiqlangan, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Fotoelektrik batareyalar samaradorligini oshirishning zamonaviy holat tahlili”** nomli birinchi bobida kremniy materialidan tayyorlangan quyosh elementi (QE) ni olish va tayyorlash texnologiyasining zamonaviy holati tahlil qilingan. Fotoelektrik batareya (FEB) larning ishlash samaradorligiga asosan harorat, changlanish va gorizontga nisbatan tayanch konstruksiyaga o'rnatish burchaklarining ta'siri chet el, MDH va mahalliy olimlar tomonidan olib borgan ilmiy izlanishlar tahlili keltirilgan. Olib borilgan tadqiqot natijalari FEB larni ekspluatatsiya qilishda yo'qotiladigan energiyani qayta tiklash uchun faol va passiv sovitish metodlari yordamida ishlash samaradorligini oshirish va changlanishdan himoya qilishga doir tahlil natijalari keltirilgan. Avtonom fotoelektrik stansiya (AFES) lardan foydalanishda ularni tashkil qiluvchi zamonaviy qo'shimcha butlovchi qismlarning ekspluatatsiya tahlili keltirilgan. O'rganilgan adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari shakllantirildi.


Dissertatsiyaning **“Avtonom fotoelektrik stansiyalardan foydalanishda energiya yo'qotishlarni tadqiq etish”** nomli ikkinchi bobida, asosan, AFES larda yuzaga keladigan (yuqori harorat, degradatsion jarayonlar, kommutatsiya nuqtalardagi va simlardagi) yo'qotishlar, tadqiqot natijalarni nazariy natijalar bilan taqqoslab kompyuter dasturidan foydalanib modellashtirilgan. FEB lar va butlovchi qurilmalarning texnik parametrlari bir-biriga mos kelmasligi ham AFES ning ishlash samaradorligini kamaytirishi aniqlangan. Olib borilgan tadqiqotlar davomida avtonom

va tarmoqqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulangan holda ishlovchi fotoelektrik stansiya (FES) larning yutuq va kamchiliklari taqqoslab o‘rganilgan.

AFES larda ekspluatatsiya davomida yuzaga keladigan yo‘qotishlarni aniqlash uchun Toshkent shahri Fizika-texnika instituti avtoturargohida umumiy quvvati 2,7 kW ga mo‘ljallangan AFES ning tajriba varianti o‘rnatildi. AB larni zaryadlash toki 1 A gacha bosqichma-bosqich pasayishi MPPT kontrolleri orqali kuzatildi. Natijada, FEB lar tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiya AB ning zaryadlash bosqichi tugagandan so‘ng zaryadlash toki issiqlikka aylanishi aniqlandi (1-rasm).



**1-rasm. MPPT kontrolleridagi FEB lar ishlab chiqargan kuchlanish va tokning vaqtga bog‘liqlik grafigi (2020. 20-may)**



**2-rasm. AB zaryad miqdori to‘lgandan keyin MPPT kontrolleri FEB tokini issiqlikka aylantirgan qismi (2020. 20-may)**

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, kun davomida FEB lar ishlab chiqaradigan elektr energiya MPPT kontrolleri tomonidan AB larni zaryadlash jarayonining kun davomida o‘zgarishi ko‘rsatilgan. Qizil egri chiziq kontrollerdan AB larga uzatiladigan tok, qora egri chiziq kuchlanishni xarakterlaydi. 1-rasmdagi kuchlanishning avval ortib, keyin kamayishi atrof-muhit haroratiga bog‘liqligini ifodalaydi. Tok kuchining avval ko‘tarilib, keyin tushishi, birinchidan, FEB larning frontal yuzasiga quyosh nurlanish oqim zichligini ortib borishi natijasi hisoblanadi. Ikkinchidan, AB lar zaryadining to‘lishi natijasida kontroller tomonidan ortiqcha zaryad miqdori issiqlikka aylantirib atrof-muhitga tarqatilishini xarakterlaydi. Agar AFES lar ishlab chiqaradigan elektr energiyasiga nisbatan iste‘molchi quvvati kam bo‘lsa, ortiqcha zaryad miqdorini MPPT kontroller issiqlikka aylantiradi. Natijada, AFES ning ishlash samaradorligi pasayib ketadi. MPPT kontroller tomonidan issiqlikka aylantirilgan zaryad miqdori quyidagi 2-rasmda uzluksiz chiziqlar bilan chegaralangan yuzaga tengligi ko‘rsatilgan.

FEB larning frontal yuzasiga tushadigan maksimal quyosh nurlanish oqim zichligi qo‘zg‘almas tayanch konstruksiyaga o‘rnatilganligi uchun may oyida soat 12<sup>00</sup>÷13<sup>00</sup> lar oralig‘ida tushadi. Lekin 2-rasmdagi grafikda egri chiziq MPPT kontroller tomonidan AB larga uzatiladigan zaryad miqdori soat 8<sup>30</sup>÷9<sup>00</sup> oralig‘iga maksimalga erishgan. AB lar zaryadi to‘lib borgan sari MPPT kontroller tomonidan uzatiladigan zaryad miqdori avtomatik tarzda issiqlikka aylantirganligini ko‘rish mumkin. Tadqiqot ishida PV SYST.7.2 dasturidan foydalangan holda AFES lardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan yo‘qotishlarni o‘rganish uchun modellashtirildi. Tadqiqot natijalari avtoturargohning tomida umumiy quvvati 2,7 kW ga teng bo‘lgan AFES ning ishlash holati va yo‘qotishlari o‘rganildi. Iste‘molchi talabidan kelib chiqib AFES ni tashkil qiluvchi barcha qurilmalarning texnik


parametrlari mos holda tanlanganda ba'zi yo'qotishlarni kamaytirish mumkinligi aniqlandi. Avtoturargoh tomida qo'zg'almas holatda 38° da o'rnatilgan AFES apreldan sentyabr oyigacha bo'lgan oraliqda eng katta yo'qotish aniqlandi. Bu yo'qotish FEB larni o'rnatish burchagi orqali yuzaga keldi va 20% gacha yetdi. Oktyabrdan martgacha 1,7% ga teng bo'ldi. PR – ishlash koeffitsiyenti butun FEB tizimidan foydalanish darajasini aniqlash uchun 1-formula yordamida hisoblab topildi:

$$PR_{AFES} = \frac{E_{KIChEE} (kW \cdot h)}{E_{STC} (kW \cdot h)} \cdot 100\% \quad (1)$$


1-formula orqali AFES larning ishlash koeffitsiyenti hisoblandi. Agar AFES larda FEB asosidagi takomillashtirilgan FIB lardan foydalanilganda, ya'ni avtonom fotoissiqlik stansiyalar uchun PR-ishlash koeffitsiyentini hisoblash uchun 2-formula taklif qilindi:

$$PR_{AFIS} = \frac{E_{KIChEE} (kW \cdot h)}{E_{STC} (kW \cdot h)} \cdot 100\% \quad (2)$$

AFES quvvatidan kelib chiqib iste'molchi ulanmaganligi sababli 2,85 kW·h/kun elektr energiya, MPPT kontrolleri tomonidan issiqlikka aylantirilgan 0,89 kW·h/kun elektr energiya, zaryad yig'ishda yo'qotishlardagi 0,17 kW·h/kun elektr energiya va tizim yo'qotishlarida hamda akkumulyatorlarni zaryadlashdagi yo'qotishlarning samarasiz qismi aniqlandi. Agar AFES quvvatidan kelib chiqib iste'molchi ulanmasa, atrof-muhit, degradatsion va changlanish ta'sirlaridan tashqari, MPPT kontrolleri tomonidan ishlatilmagan elektr energiyani atrofga befoyda issiqlikka aylantirib yuborish natijasida qo'shimcha yo'qotishlar aniqlandi. 3-rasmda PV SYST.7.2 dasturidagi natijalar va tajriba natijalar keltirildi.



3-rasm. Elektr energiyani har bir oyda taqsimlanishi. 1 - PV SYST.7.2 da modellashtirish, 2-tajriba natijalari




4-rasm. AFES ning ishlash samaradorligi va yuzaga keladigan yo'qotishlar ko'rsatkichi

Modellashtirish natijalari shuni ko'rsatdiki, tashqi degradatsion ta'sirlardan tashqari foydalanilmagan elektr energiyasi tufayli kunlik va oylik yo'qotishlar 69% ni tashkil qildi (4-rasm). 5-rasmda yil davomida har bir oy uchun FEB larni qo'zg'almas tayanch konstruksiyaga o'rnatish burchagining o'rtacha qiymati keltirildi. Bu o'rnatish burchaklarni hisoblashda FEB lar o'rnatilgan joyning geografik kengligi (Toshkent shahri uchun – 41°) hisobga olinib, 3-formula orqali hisoblandi:


$$\beta_0 = \varphi - \delta_0 \quad (3)$$

FEB ning frontal yuzasini har doim quyoshga tik qaratishda quyoshning  $\delta_0$  – og'ish burchagi Kuper formulasi bilan aniqlandi:

$$\delta_0 = 23,45 \cdot \sin\left(360 \frac{284+n}{365}\right) \quad (4)$$




5-rasm. FEB larning yil davomida gorizontga nisbatan oylar bo'yicha optimal o'rnatish burchagi




6-rasm. FEB larning yil davomida fasllar bo'yicha gorizontga nisbatan optimal o'rnatish burchagi

FEB larni 5-rasmda keltirilgan hisob-kitoblarga asoslanib o'rnatish uchun ikki o'q bo'yicha harakatlanuvchi sistema kerak bo'ladi. Ammo bunday konstruksiyadan foydalanib ishlab chiqariladigan elektr energiya narxi yanada oshib ketadi. Shuning uchun FEB larni fasllar kesimida yoki yil davomida optimal burchakka o'rnatish to'g'ri bo'ladi. 6-rasmga asosan olib borilgan tadqiqot natijalari uchun FEB lar har bir fasl uchun va yillik qo'zg'almas holatda optimal burchaklari aniqlandi. Yillik optimal o'rnatish burchagi tadqiqot olib borilgan joy uchun geografik kenglik (bahorgi va kuzgi teng kunglik) burchaklariga tengligi aniqlandi. FEB larni 3, 4 - formulalardan hisoblangan o'rnatish burchak qiymatlari yordamida olingan samarali natijalarga erishilganligi 7-rasmda ko'rsatilgan.



7-rasm. Quyosh nurlanish oqim zichligini vaqtga bog'liqlik grafigi




8-rasm. Issiq suv sig'imini quyosh nurlanish oqim zichligiga bog'liqlik grafigi

Qo'zg'almas tayanch konstruksiyaga o'rnatilgan FEB ning frontal yuzasiga tushgan quyosh nurlanish oqim zichligi (qizil egri chiziq) hisobiga tajriba davomida 100 litr issiq suv olindi (7-rasm). FEB qo'zg'almas tayanch konstruksiyaga o'rnatilgan, faqat quyosh nurlanish oqim zichligini orttiruvchi yon reflektorlar o'rnatilgan holatda (yashil egri chiziq) 120 litr issiq suv olindi. FEB ning frontal yuzasiga quyosh nurlanish oqim zichligini oshiruvchi yon reflektorlardan foydalanilganda va ikki o'q bo'yicha harakatlanuvchi tayanch konstruksiyaga mahkamlanganda (ko'k egri chiziq) olingan

issiq suv sig'imi 150 litrga yetdi. Uchta holatda ham kiruvchi sovuq suv harorati 8 °C, chiquvchi suv harorati esa 40 °C gacha ko'tarilganligi tajribada aniqlandi (8-rasm).

Tadqiqotlar davomida FEB, FIB larning salt yurish kuchlanishi va qisqa tutashuv toklari taqqoslandi (9-rasm). 9a-rasmning 1-intervalida FIB FEB rejimida ishlaydi. FEB orqa yuzasi tashqi muhit bilan konvektiv issiqlik almashinish (FEB ning orqa yuzasiga sovutuvchi IK va izolyatsion qatlamlar borligi) yo'qligi uchun salt yurish kuchlanishi tez pasayib ketadi. 2-intervalda yon reflektorlar ochilishi bilan FEB yuzasiga tushayotgan quyosh nurlanish oqim zichligining ortishi orqa yuzasining qo'shimcha qizishiga olib keldi. Salt yurish kuchlanishi kamayishi davom etdi va 3-intervalda IK dan suv o'tkazilganda FEB salt yurish kuchlanishi ortishi kuzatildi. 9b-rasmda FEB va FIB lar qisqa tutashuv tokining vaqtga bog'liqligi ko'rsatilgan. 9b - rasmdan quyosh nurlanish oqim zichligi 1000 W/m<sup>2</sup> bo'lganda qisqa tutashuv toki 9 A ga tengligi aniqlandi.



9-rasm. FEB va FIB ning a) salt yurish kuchlanishining, b) qisqa tutashuv tokining vaqtga bog'liqlik grafiklari

Bu qiymat FEB ning sertifikatlash pasportidagi ko'rsatkichidir. FEB larning frontal yuzasiga quyosh nurlanish oqim zichligini qo'zg'almas tayanch konstruksiyaga o'rnatilganda 1,5 marta, ikki o'q bo'yicha harakatlanuvchi tayanch konstruksiyaga o'rnatilganda esa 1,7 martaga ortishi bilan ishlab chiqarilgan issiqlik energiyasi 20 % dan 50 % gacha oshganligi aniqlandi. Qish fasli (yanvar oyi) da olingan tadqiqot natijalari asosida xulosa qilib aytish mumkinki, FIB lar asosidagi qurilmalar aholini yil davomida elektr energiya va issiq suv bilan ta'minlash mumkinligi isbotlandi.


Dissertatsiyaning **“Avtonom fotoelektrik stansiyalarning energiya ta'minoti ishonchliligini oshirish usullari”** nomli uchinchi bobida FIB ni tayyorlash texnologiyasi keltirildi. Takomillashtirib ishlab chiqilgan FIB ning elektr samaradorligi 5-formula orqali hisoblandi:

$$\eta_{el} = \frac{P_n}{E \cdot S_{faol}} \quad (5)$$

FIB dan olingan issiq suvning issiqlik samaradorligini hisoblashda 6-formuladan foydalanildi:

$$\eta_T = \frac{P_T}{E \cdot S_{IK}} \quad (6)$$

10a,b-raslarda parallel kanalli polikarbonat kollektorli to‘la issiqlik kontaktli FIB ning aksionometrik proyeksiyasi va tashqi tomondan ko‘rinishi keltirilgan.



a) b)  
 1-reflektor, 2-FEB mustahkamligini saqlovchi korpus, 3-qo‘sh gaykali boltli oshiq-moshiqlar, 4-FEB (4-himoya shishasi, 5,7-old va orqa laminatsiya qatlam, 6-QE lari, 8-orqa himoya plyonkasi (tedlar), 9-parallel kanalli uyali polikarbonat, 10-polimer quvur, 11-mis metall rezbali adapter, 12-probkalar, 13-tirqish, 14-jo‘mraklar, 15-folgoizol, 16-penoplast, 17-orqa qopqoq, 18-klemma qutisi.

10-rasm. FIB ning a - aksionometrik va b - tashqi tomondan ko‘rinishi


Optimal burchaklarda o‘rnatilgan qurilmadan olingan natijalar 1-jadvalda keltirildi. Yilning har bir fasli uchun optimal o‘rnatish burchaklar aniqlanib, tadqiqot natijalari olib borildi. Aniqlangan o‘rnatish burchaklar har bir fasl uchun optimal hisoblanadi.

1-jadval

Fasllar bo‘yicha aniqlangan burchaklarda o‘rnatilgan qurilmadan olingan natijalar

Fasllar	Bahor	Yoz	Kuz	Qish
Quyosh nurlanish oqim zichligi reflektorsiz, W/m <sup>2</sup>	690-750	735-820	670-720	640-670
Quyosh nurlanish oqim zichligi reflektorli, W/m <sup>2</sup>	970	1100	930	870
O‘rnatish burchagi, °	32	22	50	60
IK ga kiruvchi suv harorati, °C	13	22	14	6
IK dan chiquvchi suv harorati, °C	40	40	40	40
IK dan chiquvchi suv sig‘imi, litr/soat	42	65	39	20


1-jadval ma‘lumotlari yordamida FIB FEB salt yurish kuchlanishi va qisqa tutashuv tokining kun davomiyligiga bog‘liqligi 11a,b-raslarda keltirilgan.




11-rasm. FEB va FIB a) salt yurish kuchlanishining, b) qisqa tutashuv tokining (fasllar kesimiga asosan) kun davomidagi o‘zgarish grafiklari

FEB va FIB larning salt yurish kuchlanishining vaqtga bog‘liqligi 11a-rasmda keltirildi. Quyosh nurlanish oqim zichligini oshiruvchi reflektorlar ko‘tarilganda salt yurish kuchlanishining o‘zgarishi juda kichik farq (o‘zgarishsiz) largacha

pasaygandan keyin IK dan tashqi haroratdagi sovuq suv ulanganligini 11a-rasmda ko‘rish mumkin. FIB ning orqa yuzasidagi harorat ko‘tarilib ketmasligi uchun IK dan chiqadigan suvning haroratini optimal 40 °C ga muvozanat holatda saqlandi. Shu haroratda har doim FIB ning kun davomidagi o‘rtacha salt yurish kuchlanishi 340 W li FEB dan foydalanilganda yozda 41 V, bahorda 42 V, kuzda 41,5 V va qishda esa pasport ma’lumotiga yaqin, ya’ni 43 V gacha qayta tiklash mumkinligi o‘rganildi. Asosan qisqa tutashuv toki FIB ning frontal yuzasiga tushadigan quyosh nurlanish oqim zichligiga bog‘liqdir. 11b-rasmda fasllar kesimida optimal burchakka o‘rnatilgan FIB ning frontal yuzasiga quyosh nurlanish oqim zichligini oshiruvchi reflektorlar qo‘llanilganda yozda 12,5 A, bahorda 11.7 A, kuzda 11,2 A va qishda 10.7 A ga tengligi tadqiqot davomida aniqlandi.





12-rasm. FIB va FEB quvvatining fasllar kesimiga bog‘liq holda o‘zgarish koeffitsiyenti



13-rasm. FIB dan olingan issiq suvni isitish uchun iqtisod qilingan elektr energiyasining fasllar kesimidagi bir soatlik taqsimoti


FIB ning fasllar kesimida va FEB ning yillik o‘rtacha quvvati 12-rasmda keltirilgan. Agar an’anaviy FEB dan foydalanilsa 1-jadvaldagi ma’lumotlar yordamida suvning haroratini 40 °C ga elektr suv isitgich (ESI) bilan ko‘tarishda yozda 1,4 kW·h, kuzda 1,2 kW·h qishda 0,8 kW·h va bahorda 1.3 kW·h elektr energiya kerak bo‘ladi. Agar taklif qilingan FIB dan foydalanilsa 13-rasmda keltirilgan elektr energiya tejaladi.




14-rasm. FIB va FEB ning a) volt-amper va b) volt-vatt xarakteristikalarini

Tadqiqotlar davomida olingan natijalar asosida FIB va FEB ning VAX va VVX lari 14a,b -rasmlarda keltirilgan. FEB ni orqa yuzasini suv bilan sovutishda olingan tadqiqot natijalari nazariy hisoblangan natijalarga mos kelishini o‘rganish maqsadida modellashtirildi. Tadqiqot uchun 15-rasmda ko‘rsatilgan model tanlandi. Unda sovutish suyuqligi harakatlanishi uchun 8x8 mm o‘lchamdagi kvadrat kesimdagi

parallel kanalli uyali polikarbonat tanlandi. Kanallar orqali sovutish suyuqligi sifatida suv o'tkazildi. COMSOL Multiphysics 5.6 uchun hisoblash natijalari 16-rasmda ko'rsatilgan uch xil holatda suv tezligi  $v = 0,1, 0,2$  va  $0,3$  m/c bo'lganda suv oqim sarfi 6,4, 12,8 va 19,2 g/s tengligi aniqlandi.



15-rasm. Tadqiqot modeli




16-rasm. COMSOL Multiphysics 5.6 da FIB frontal yuzasi haroratining o'zgarishi

Kiruvchi suv tezligi  $0,1$  m/c bo'lganda, Reynolds soni 2300 dan kichik ekanligi aniqlandi. Natijada, IK dan harakatlanadigan suvning harakati yopishqoq laminar rejimda ekanligi aniqlandi. Taqqoslashlardan COMSOL Multiphysics 5.6 dasturi va tadqiqot natijalari 3% farqlanganligi aniqlandi. COMSOL Multiphysics 5.6 dasturida gidrodinamik va issiqlik uzatish tenglamalaridan foydalanish aniq va yetarlicha ma'lumotlarni berdi. Modellashtirish natijalari nazariy natijalarga mosligi o'rganildi.

Dissertatsiyaning “**Markazlashgan energiya ta'minotidan uzoqda joylashgan aholini elektr energiya va issiq suv bilan ta'minlashning energetik, iqtisodiy va ekologik asoslari**” deb nomlangan to'rtinchi bobida FEB, FIB larni AFES va AFIS larda qo'llash bo'yicha texnik, iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlari taqqoslandi. FEB va FIB larning iqtisodiy samardorligini baholash ikki metod bilan hisoblanadi. Birinchi metodda FEB va FIB lardan foydalanishda mamlakat yalpi ichki mahsulotlar tannarxiga nisbatan inflyatsiya (qurilma va ishlab chiqargan energiya narxlarining ortishi) hisobga olindi. Ikkinchi metodda FIB, FEB va ularni butlovchi qurilmalar sotib olingan kundan boshlab yaroqlilik muddatini hisobga olgan holda inflyatsiya va boshqa o'zgarishlar hisobga olinmaydi. FIB va FEB larning bir-biriga nisbatan iqtisodiy tahlil qilish uchun oddiy to'lov metodidan foydalanildi.


Taklif etilayotgan yechimlarning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun FIB larni avtonom qo'llashda ham elektr energiya, ham issiq suvdan foydalanish davomida sarflangan xarajatlarni an'anaviy FEB lar bilan taqqoslandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, FIB dan foydalangan holda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining fasllar o'zgarishiga qarab 20-35% gacha oshirishni ta'minlaydi. Tadqiqot o'rtacha nominal quvvati 340 W bo'lgan FEB dan avtonom foydalangan holda o'tkazildi. Kutilayotgan iqtisodiy samarani FEB quvvatini IK va quyosh nurlanishini zichlashtirib beruvchi reflektorlar yordamida oshirish natijasida FEB larning sonini kamaytirish orqali erishildi. Oddiy to'lov metodi bilan FIB va FEB larning o'z-o'zini qoplash muddati va sof foyda ko'rsatkichlari 17-rasmda keltirildi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, bir dona 340 W quvvatdagi FEB dan FIB tayyorlash uchun 800 000 so'm qo'shimcha xarajat sarflandi. Agar FEB larni sovutish uchun ishlatilgan qo'shimcha materiallarning narxi (800 000 so'm) dan kelib chiqib olingan issiqlik energiya

miqdoriga nisbatan hisoblansa, FIB ning issiqlik kollektor qismi 4,3 yilga o‘z-o‘zini qoplashi aniqlandi.




17-rasm. FIB va FEB larining o‘z-o‘zini qoplash muddati va sof foyda ko‘rsatkichlari

Umumiy ishlab chiqilgan energiya miqdoriga nisbatan FIB 6 yilga, FEB esa 9 yilga o‘z-o‘zini qoplab foyda olishga erishilishi aniqlandi. Shuning uchun markazlashgan energiya ta‘minotidan uzoqda yashovchi aholini turmush tarzini yaxshilash maqsadida AFIS lardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



18-rasm. FEB va FIB ning yil davomida ishlab chiqarilgan elektr energiyasining oylar kesimiga bog‘liq holda o‘zgarishi




